
"Oqtomir" MFYda 7 ming 600 metr ichimlik suv tarmog'i tortilmoqda

✿ Rishton tumanida qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, ichki yo'llar, ichimlik suv, elektr energiyasi va gaz ta'minotini, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa infratuzilma ob'ektlarini yaxshilash, shu asosda aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

* Prezidentimizning 2022 yil 25 oktyabrda qabul qilingan "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida hududlarda salmoqli ishlar boshlab yuborildi.

???? Tumandagi Oqtomir mahallasida ham ichimlik suv ta'minoti bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf etish va bu orqali aholiga qulaylik yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

✍ Ayni vaqtda qishloq hududida 7 ming 600 metr ichimlik suv tarmog'i tortish ishlari davom etmoqda. Mazkur ishlar natijada hududdagi 500 dan ortiq xonadonga toza ichimlik suvi kirib boradi.

???? Tumandagi barcha mahallalarda hududlar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2023-01-11 14:25:55